

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

12/2.2023

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan**

Urganch – 2023

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

TAHRIR HAY'ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
DO'SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, mas'ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O'zMU),
SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SATIPOV G'oiptnazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),
YAKUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI• 2023 12/2 (200)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti•Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan•**GUVOHNOMA № 1131.**

mentlari turli pozitsiyalarda;

–qisman, fragmentlardan biri qisqartirilmagan shaklda ifodalanganda,

–gaplogik, bo‘lingan va bir vaqtning o‘zida ustma-ust qo‘yilgan kontaminatsiyalangan so‘zlarga va birlashtirilgan so‘zlarning moddiy shaklini kamaytirmasdan ustma-ust qo‘yilgan kontaminatsiyalangan so‘zlarga aratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Leychik V.M. Об одном малоизученном способе словообразования («Телескопные слова» современного французского языка). Filol. fanlar., 1966, № 3, с. 14 – 20.
2. Mamatov A.E. Проблемы лексико-фразеологической нормы в современном узбекском литературном языке. Dok. diss.avtoref., T., 1991, с. 46.
3. Muradyan A.Y. Словослияние в современном английском языке (специфика, динамика, теория). Dok. diss. Avtoref., L., 1978, с. 15.
4. Railyan S.V., Alekseyev A.Y. Некоторые проблемы стилистического словообразования. Kishinyov, “Shtiintsya”, 1980, с. 200.
5. Timoshenko T.R. Телескопия в словообразовательной системе английского языка. Filol. fan.nomzodi diss. avtoref., Киеву, 1976, с. 26.

**Xudjayeva Ra’nohon Mitalibjonovna (A.Navoiy nomidagi TDO‘TAU “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”
kadefrasi dotsenti, PhD; e-mail: bagira81@inbox.ru)**

O‘ZBEK VA INGLIZ TILI IZOHLI LUG‘ATLARIDA OMONIMLAR VA POLISEMIYASINING BERILISH MASALASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz izohli lug‘atlarida omonim va ko‘p ma’noli so‘zlarni uzatish muammosi o‘rganiladi. Maqolada, asosan, o‘zbek va ingliz tilidagi izohli lug‘atlarni yaratishda qo‘llanilgan yondashuvlarni qiyoslash va tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, omonim va polisemiya ma’no-larini yetkazishning samaradorligi va to‘g‘riligiga asosiy e’tibor qaratilgan.

Аннотация. Данная статья исследует проблему передачи омонимов и полисемии в узбекских и английских толковых словарях. Статья в основном сосредоточена на сравнении и анализе подходов, используемых при создании узбекских и английских толковых словарей, с основным упором на эффективность и точность передачи значений омонимов и полисемии.

Annotation. This article explores the problem of transmitting homonyms and polysemy in Uzbek and English explanatory dictionaries. The article mainly focuses on the comparison and analysis of the approaches used in the creation of Uzbek and English explanatory dictionaries, with the main emphasis on the efficiency and accuracy of conveying the meanings of homonyms and polysemy.

Kalit so‘zlar: omonimlar, polisemiya, o‘zbek tili, ingliz tili, izohli lug‘atlar, ma’no ko‘chirish, samaradorlik, aniqlik.

Ключевые слова: омонимы, полисемия, узбекский язык, английский язык, толковые словари, передача значений, эффективность, точность.

Key words: homonyms, polysemy, Uzbek language, English language, explanatory dictionaries, transfer of meanings, efficiency, accuracy.

Im fanda ekvivalentlik, shu jumladan, polisemiya va omonimiyani chegaralash masalasiga oid boy va qiziqarli materiallar to‘planganligiga qaramay, ko‘plab olimlar uchun ushbu til hodisalari sohasidagi tadqiqotlar dolzarb bo‘lib bormoqda. Qolaversa, tilshunoslik rivojining yangi bosqichida ko‘p ma’nolilik muammosiga, polisemiya va omonimiya o‘rtasidagi munosabat tabiatiga bag‘ishlangan asarlar bugungi kunda, ehtimol, avvalgidan ham ko‘proq talabga ega. Albatta, bu muammoga qiziqish til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatlarga, tilni bilishning asosi bo‘lgan jarayonlarga, jumladan, gaplarni yaratish va tushunish jarayonlariga qiziqishning natijasidir.

Omonimlar, bir qarashda, tilshunoslikning sof nazariy muammosidek ko‘rinsa ham, aslida, uning pragmatik tomonlari tildagi muammolarga yechim topilishida muhim amaliy ahamiyatga egadir. Shu o‘rinda ayrim omonimlarga alohida to‘xtalishni lozim topdik.

Birinchidan, omonimlar til tarixini o‘rganishda muhim ma’lumotlar bazasi va arxiv manbalar sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ularni o‘rganishda ham sinxron, ham diaxron tahlil parallel amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, ma’lum bir til materialida omonimlarni o‘rganish o‘sha tilning tarixiy taraqqiyoti evolutsiyasini va dinamikasini ilmiy asoslashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, hozirgi kunda til tarixi, diaxron tilshunoslik va tarjimashunoslik sohasidagi tadqiqotlar soni juda ozchilikni tashkil etadi. Bizningcha, omonimlarning elektron lug‘atini yaratish to‘liq bo‘lmas ham, qisman shu “bo‘shliq”ni to‘ldirishga xizmat qiladi. Ya’ni o‘zbek va ingliz tillari leksikonining tashqi manbalari asosida boyishi jarayonining tadrijiy taraqqiyoti omonimlar bilan ham uzviy aloqadordir. Bunda til tarixining turli bosqichlarida omonimlarning miqdoriy tarkibidagi o‘zgarishlar, omonimik qatorlarda yuz bergan turli o‘zgarishlar, til tarixining muayyan davrida tilga kirib kelgan va iste’moldan chiqib ketgan omonimlarning aniq miqdoriy munosabati, omonimlarning til taraqqiyotidagi o‘ziga xos o‘rni kabi jihatlarga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Chunki qayd etilgan muammolar tilshunoslikda haligacha o‘zining aniq yechimini topmagan va maxsus tadqiq etilmagan. Shu bois bizning tadqiqotimizning bir qismini leksikografiya bilan bog‘lashga jazm etdik.

Ko‘p asarlarda muammoning rivojlanmaganligi haqida bayonotlar beriladi, bu, asosan, leksikografik amaliyotda o‘z aksini topadi. Bu haqida R.S.Ginzburg shunday yozadi: “Leksikografiya tishunoslik fanining darajasini aks ettiradi va ko‘p jihatdan ma’lum nazariy pozitsiyalarning haqiqatini tekshiradigan “amaliyot”idir. Masalan, omonimiya talqinidagi nomuvofiqlik va turli xil nazariyalar barchaga ma’lum. Shunday ekan, ingliz tilidagi polisemiya, asosan, semasiologiyaning haligacha hal etilmagan muammolarning obyektiv murakkabligi, xususan, omonimiya va polisemiyaning o‘rtasidagi farq hamda so‘zlarning individual ma’nolarini ajratishning ishonchli mezonlarining yo‘qligi bilan izohlanadi”.¹

I.R.Galperin BARS so‘z boshida shunday yozadi: “...hatto juda obro‘li ingliz va amerika lug‘atlarda, masalan, buyuk Oksford va Vebster lug‘atlarida ham omonimlarning taqsimlanishida hayratlanarli darajada nomutanosiblik mavjud”.²

Omonimlar xorijiy badiiy asarlarni tarjima qilishda, tillarni mukammal egallashda o‘ziga xos “to‘siq” bo‘ladi, ma’lum qiyinchilik va murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Bir xil lisoniy shakl turli xil ma’no-larga ega bo‘lishi va omonimlarning matnni idrok etishda o‘quvchini qiyin ahvolga solishi mazkur birliklarni tadqiq etishning yana bir pragmatik tomonini ko‘rsatib beradi.

Til o‘qitish jarayonida omonimlar bilan bog‘liq muammolar asta-sekin tilni mukammal kontekstga bog‘lab o‘rganish asosida hal etilishi mumkin. Lekin omonimlar bilan bog‘liq muammolarni mazkur metod bilan hal etib bo‘lmaydi. Bu jarayonda omonimlar ro‘yxatini aniq belgilab olish hamda ularning ishlatilishi va ma’nolari bilan bog‘liq etimologik izohlar, sharhlar yordamida tavsiflash, so‘ng yagona lug‘atga jamlash lozim. Bir so‘z bilan aytganda, omonimlarning kitob shaklidagi lug‘atini va maxsus elektron lug‘atini yaratish lozim. To‘g‘ri, shu kunga qadar ko‘plab omonimlar lug‘ati yaratilgan, lekin ularning birida omonimlar o‘ziga o‘xshash hodisalar bilan yondash va aralash holda tavsiflangan. Xususan, R.Bridjzning omonimlar ro‘yxatida 800 omonimik guruh keltirilgan.³ Ushbu asarning ahamiyati shundaki, unda faqatgina talaffuz jihatidan bir xil bo‘lgan omonimlar ajratib berilgan.

Bir turkum doirasida yuzaga kelgan omonimik qatorlardan ko‘ra turli so‘z turkumlari doirasida shakllangan omonimik qatorlarda yoki omonimik qatorlarning ichki strukturasi va o‘sha qatoridagi omonimik so‘zlar o‘rtasida polisemiyaning tarmoqlanishini ko‘plab holatlarda kuzatish mumkin. Masalan, etimologik jihatdan bir tilga oid va turli so‘z turkumlariga tegishli bo‘lgan o‘zbek tilidagi *dov* omonimik qatorini olsak. Bunda *dov*₂ va *dov*₃ so‘zlari qolgan so‘zlarga, ya’ni *dov*₁, *dov*₄ va *dov*₅ so‘zlariga nisbatan polisemiya hisoblanadi. *Dov*₁, *dov*₄ va *dov*₅ so‘zlari esa omonim hisoblanadi (Ushbu misol lug‘atdan aslidek olindi).

Dov I [tojikcha] *ot.* Qimorda katta tikish.

Dov II [tojikcha] *sifat.* Qo‘rqmas, jur‘atli, dadil.

Dov III [tojikcha] *ot.* Jur‘at, dadillik.

Dov IV [tojikcha] *ot.* talab, da‘vo.

Dov V [tojikcha] *sifat.* Bo‘ychan, katta.

Dov VI [tojikcha] *dov-daraxt.*⁴

¹ Лексикология английского языка. Учебник для ин-тов и фак. иностр. яз., р. 3. Гинзбург С.С., Хидекель Г.Ю., Князева и А.А.Санкин. 2-е изд., испр. и доп. М., “Высш. школа”, 1979, с. 269.

² R.Galperin. Stylistics. Vol. 7, № 2 (Spring 1973), p. 181–183 (3 pages). Published By: Penn State University Press.

³ Bridges R.S. On English Homophones. Society for Pure English. Oxford. 1919, vol. 1, p. 3–48. On English homophones. L., 1922.

⁴ Cambridge Advanced Learner’s Dictionary. 2013.

Polisemiya nafaqat ma'nolar o'rtasida, balki omonim qatorlarining ichida ma'nolari ichida ham uch-rashi mumkin. Xuddi shunday misolni ingliz tilidagi omonimik qatorda ko'rib chiqsak (ushbu misol lug'atdan aslidek olindi).

Table¹ – *piece of furniture consisting of a flap top with (usu. four) supports (called legs).*

Table² – *(sigh only) people seated at a table.*

Table³ – *(sigh only) food provided at a table.*

Table⁴ – *list of orderly arrangement of facts, information, etc. (use in columns).*

Ko'rib turganingizdek, *table* omonimik qatoridagi *table*,¹ *table*,² *table*³ omonim so'zlari o'rtasida polisemiya mavjud, *table*⁴ omonimi esa bundan mustasno bo'lib, boshqa so'zlarga nisbatan omonimdir. Bu muammo juda ko'plab tilshunoslar tomonidan tadqiq etilganligiga qaramay, lug'at tuzishda bu so'zlarning berilishi, tanlab olish prinsiplari, farqlari to'liq aks etmagan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, tarjimonning asosiy quroli – bu lug'at. Uning ishlatayotgan lug'ati mukammal bo'lmasa, tarjima muqobil chiqmaydi. Aynan omonim va polisemantik so'zlarni lug'atda berilishi esa tarjimonga yo "chin do'st", yoki "soxta do'st" vazifasini bajaradi. Natijada badiiy tarjima jarayoni o'z ichki kechinmalarini kitobxonga yetkazib bera olmaydi.

O'zbek tili uchun yagona to'la qonli lug'at hozircha "O'zbek tilining izohli lug'ati"dir. Ammo fundamental lug'atimiz ham kamchiliklardan mustasno emas. Keling, ushbu lug'atimizda omonim va polisemantik so'zlarni berilishida ayrim muammolarni tahlil etsak (Ushbu misol lug'atdan aslidek olindi).

HILOL [a. – yangi oy] 1. kt. Yangi chiqqan oy.

2 HILOL (erkak va xotin-qizlarning ismi).

Ushbu lug'at tarkibidagi so'z, aslida, omonimik qatordir, ammo lug'atimizda ushbu polisemantik so'z kabi berilgan. Aslida, o'zbek tilidagi "hilol" so'zi o'zidan omonimik qatorni paydo qilgan (muallif tahlili).

HILOL I – yangi chiqqan oy.

HILOL II – Erkak va ayollar ismi.

HILOL III – kechki hilol, hiloldoshlarga mansub ko'p yillik o't turi.

HILOL VI – tog'da yashovchi, chipor rangli sayroqi qush.

HILOL VII – ekinlar orasida chiqadigan begona o't (salamallik o'ti og'zaki nutq, assalom-u alaykum deb ham aytiladi).

Muallif tahlilidan ko'rish mumkinki, barcha "hilol" so'zlari o'rtasida hech qanday funksiyadoshlik yo'q. Shunday ekan, ushbu so'zni omonim qator deya qo'shish darkor. Shularni hisobga olgan holda, ushbu so'zni lug'atda berilishi ham tadqiqotlarimizda keltirilgan mezonlar asosida kiritilish va o'zining omonimik qator sifatida izohlanishi kerak.

Bilamizki, til rivojlanishdan to'xtamaydi, tashqi va ichki omillar ta'sirida turli so'zlar paydo bo'ladi yoki, aksincha, iste'moldan chiqib ketadi.

Ma'lumki, omonim so'zlar va ulardan paydo bo'lgan yangi so'zlar, iboralar, terminlar, ko'chma ma'nolar har bir millat tilning kuchini, ifoda imkoniyatlarini ko'rsatadi, qolaversa, tilning yashash shakllari bo'lgan rasmiy, ilmiy, publitsistik va badiiy uslublarning rivojlanganligi, istalgan fikrni istalgan uslubda ifodalash mumkinligi ham tilning omonimik fondining boyligi, adabiy me'yorlarning shakllanganligi bilan belgilanadi.

Ingliz tili leksikografik amaliyotida omonimlarni taqdim etishning aniq qoidasi yoki prinsiplari yo'q. Odatda, lug'atdagi so'zlarni tanlash tamoyillari va so'zlarning ma'nolarini ko'rsatish yo'llari batafsil bayon etilgan, ammo omonim leksemalarni tavsiflashning umumiy tamoyili yo'q, bu ingliz tilining barcha izohli va o'quv lug'atlari uchun bir xil. Bundan tashqari, leksikograflar tomonidan e'lon qilingan lug'at yozuvini tashkil qilish tamoyillari, ko'pincha, inobatga olinmaydi, bu hol ayniqsa omonimlarning ma'nolarini lug'at talqiniga murojaat qilganda sezilarli bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillari turli tuzilishdagi tillar bo'lib, lug'atlarining mikrotuzilmasini tashkil etishda o'z aksini topadi.

Tilning eng mufassal xususiyatlari nufuzli leksikografik manbalarda aks etadi deb taxmin qilish, tabiiy. Keling, ingliz tilining beshta eng mashhur izohli lug'atlariga murojaat qilaylik: Longman Dictionary of Contemporary English (1995); Cambridge Advanced Learner's Dictionary (2013); Collins English Dictionary (2000); Oxford Dictionary of English (2003); Macmillan English Dictionary for Advanced Learners (2007).

Zamonaviy “Longman”¹ lug‘ati shuni ko‘rsatadiki, omograflar “bir xil imloga ega, ammo u yoki bu jihatdan bir-biridan farq qiladigan so‘zlardir. Ular turli lug‘at yozuvlarida o‘z aksini topgan”. Ushbu lug‘atda nutqning turli qismlariga tegishli so‘zlar omograf sifatida ko‘rib chiqiladi. Omograflar foydalanish chastotasining kamayish tartibida keltirilgan. Masalan, ot. “face” so‘zi “face” fe‘liga qaraganda tez-tez uchraydi, shuning uchun ot birinchi lug‘at yozuvida aks ettirilgan. Gapning bir qismiga tegishli omograflar turli lug‘at yozuvlariga beriladi. Masalan, row [rəu] “qator” va row [rau] “janjal” lug‘at yozuvlarida turlicha talaffuz qilingani alohida qatorlarda berilgan. Xuddi shu lug‘atda yana ma‘nosi bo‘yicha sezilarli farqlarga ega bo‘lgan omograflar, agar ulardan biri bosh harf bilan yozilsa, turli lug‘at yozuvlarida ham o‘z aksini topadi. Masalan, “catholic”–sifat, “Catholic”–ot.

Agar so‘z ko‘plikdagi ot bo‘lsa-da, lekin boshqa ma‘noga ega bo‘lsa (birlikdagi otdan farqli), unda bu so‘zlar, odatda, bir xil lug‘at yozuvida uchraydi. Masalan, “blue” “siniy”, “blues” “blyuz”, “the blues” “qayg‘u hissi”. Biroq, agar ko‘plik shakli birlik shaklidan muhimroq bo‘lsa va bu so‘zlar bir nechta ma‘noga ega bo‘lsa, keyin ularning har biri o‘z lug‘at yozuviga ega bo‘lsa, “goods” “tovar”, “good” “yaxshi”. Ko‘p ma‘noli so‘zlarning ma‘nolari ham qo‘llanish chastotasi bo‘yicha berilgan: birinchi ma‘no eng ko‘p uchraydi. Tahlil jarayonida ma‘lum bo‘ldiki, lug‘atlarda omonimlarni ifodalashning asosiy tamoyili so‘z bo‘lagidir (ingliz tilida konversiya hodisasi keng tarqalganligi sababli). Biroq, bu qoida har doim ham kuzatilmaydi.

Shunday qilib, ko‘rib chiqilayotgan lug‘atda “ring” so‘zi uchta lug‘at yozuviga bag‘ishlangan: biri “halqa”, “aylana” ma‘nosini anglatuvchi otning ma‘nosini, ikkinchisi fe‘lni tasvirlaydi “qo‘ng‘iroq qilmoq”, “qo‘ng‘iroq chalmoq”, uchinchisi “atrofni o‘rash”, “qushning sayrashi” va “bir narsa atrofida doira chizish” fe‘llari.

Shuningdek, “present” so‘zining to‘rt ma‘noda ifodalanganligiga e‘tibor qaratamiz, bunda ikkitasi otga, biri fe‘lga, ikkinchisi esa sifatga bag‘ishlangan. “lie” so‘zi o‘z aksini topgan uchta qator: biri “yotmoq” fe‘liga, ikkinchisi “yolg‘on so‘zlash” fe‘liga, uchinchisi esa “yolg‘on” otiga bag‘ishlangan. Buning sababi, “yolg‘on so‘zlash” fe‘li standart (muntazam) fe‘l, “yotmoq” esa nostandart (noto‘g‘ri) fe‘l bo‘lishi mumkin.

Uchta so‘zdan iborat bo‘lgan yana bir misol “can” omonimik qatoridir: biri “konservalash” va “ishdan bo‘shatish” (fe‘l), ikkinchisi “qalay quti” (ot.) ma‘nosi bilan bog‘liq, uchinchisi ma‘nosining mavjudligi esa “can” fe‘lining modalligini ko‘rsatish zarurati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin: “qila olmoq”, “bajara olmoq” ma‘nolariga to‘g‘ri keladi.

“Cambridge Advanced Learner’s Dictionary”² lug‘atining asoschilari ushbu lug‘atlarida omonimlar, omograflar yoki omofonlarning ajratilishi haqida ma‘lumot bermaganlar, lekin agar so‘z ko‘p ma‘noli bo‘lsa, uning ma‘nolari ularning chastotasiga qarab belgilangan. Ushbu lug‘at tahlili shuni ko‘rsatadiki, unda omonimlar ajratilmagan, lug‘at tuzuvchilari ham so‘zlarni aks yetirishning lug‘at tuzish prinsipiga amal qilmagan, bunda barcha so‘zlarni polisemant sifatida ifodalaydilar. Tahlil qilingan so‘zlarning har birida bir qatorida berilgan. Istisno sifatida ikki qatorida berilgan “can” omonimik qatoridir: biri “qalay quti” (ot), ikkinchisi “bajara olmoq”, “qila olmoq” modal fe‘liga bag‘ishlangan. E‘tibor bering, “can” so‘zi boshqa barcha lug‘atlarda ta‘kidlangan “konservalash” ma‘nosiga ega, ammo bu lug‘atda bu ma‘no qayd etilmagan.

“Collins English Dictionary”³ inglizcha lug‘ati mualliflarining ta‘kidlashlaricha, “turli xil so‘zlardan olingan, lekin bir xil imloga ega so‘zlar (omograflar)” lug‘atda alohida qayd etilgan va yuqori chiziqdagi raqam bilan bosh so‘z bilan ifodalangan. Agar katta harf bilan yozilgan so‘z lug‘atda alohida sanab o‘tilgan bo‘lsa, u kichik harf bilan boshlangan so‘zdan keyin keltiriladi. Shunda so‘z nutqning turli so‘z turkumlariga tegishli bo‘lsa, lug‘at ularni “romb” shaklidagi belgi bilan ajratib, bitta qatorida yozuvida beradi.

Polisemantik so‘zlarning ma‘nolari ularning qo‘llanish chastotasi tartibida o‘z aksini topadi. Ammo lug‘at tuzuvchilar “ma‘nolardan biri boshqa ma‘nolarni ham o‘z ichiga oladi (asosiy ma‘nodir) deb hisoblasa, avval uni taqdim etish mumkin. Keyingi ma‘nolari shu tarzda aks ettiriladi va birinchi (asosiy) ma‘noning asliyatini ochib beradi”. Agar so‘z turli gap bo‘laklariga tegishli bo‘lsa, unda har bir gap bo‘lagining barcha ma‘nolari bir qatorida birlashadi.

Taxmin qilish mumkinki, “Collins English Dictionary” lug‘ati o‘quvchilar uchun idrok etish va tushunish uchun eng qiyin lug‘atlardan hisoblanadi, chunki u lug‘atda so‘zlar berilish tartibi, prinsiplariga ri-

¹ Longman Dictionary of Contemporary English. 1995.

² Cambridge Advanced Learner’s Dictionary. 2013.

³ Collins English Dictionary. 2000.

oya qilinmagan. Misol uchun, lugʻatda omonimlarning maʼnolarini ifodalash uchun har doim ham “omonimlarni lugʻatda berish” prinsipidan doimiy ravishda foydalanmaydi. Shunday qilib, “jumper” soʻzi faqat bitta lugʻat yozuvida aks etadi, aniqki, “jumper”,¹ “sakrovchi-akrobat” va “jumper”,² “sviter” (ot) maʼnolariga ega, “kind” omonimik qatori ikkita soʻzdan iborat. Lugʻat maqolalarining birinchi maʼnosi “mehribon, yumshoq, xushxulq inson” sifatlarini, ikkinchisi esa “tur, sort, sinf” ot shaklida aks etadi. Boshqa hollarda, turli soʻz turkumlaridagi soʻzlar bitta qatorda beriladi: masalan, “general” soʻzi bir qatorda polisemantik soʻz sifatida taqdim etilgan, aslida esa uning maʼnolari “general”, “unvon” (ot) va “umumiy” (sifat) kabi maʼnolariga ega.

Baʼzi hollarda soʻzlarning qatorlarga boʻlinishi leksik maʼnoga koʻra sodir boʻladi. Masalan, “bank” soʻzi lugʻatda uchta qatorga ega: biri “moliya muassasasi”, ikkinchisi “daryo qirgʻogʻi” va shunga oʻxshagan leksik-semantik variantlarga, uchinchisi esa “ketma-ket, qator qilib terilgan” soʻzlariga bogʻishlangan. Ikkita qatorda ifodalangan “firm”, biri “qatʼiy, qattiq” tushunchasi bilan bogʻliq feʼl va sifatarga, ikkinchisi esa “firma, tashkilot” maʼnosiga bogʻishlangan.

Ayrim lugʻat mualliflari soʻzlarni biron-bir xususiyatiga koʻra ajratmaydilar va barcha leksik-semantik variantlarni oʻz ichiga olgan bir qatorni qoldiradilar. Masalan, koʻrib chiqilayotgan lugʻatlarning birida “coach” omonimik qatorini koʻp maʼnoli soʻz sifatida “murabbiy, murabbiylik qil-moq”, “arava”, “vaqon” va “avtobus (sayyoh uchun yoki shaharlararo)” maʼnolari bilan aks ettirilgan.

“Express” soʻzi ham xuddi shunday bir qatorda berilgan, garchi uning maʼnolari turli soʻz turkumlariga tegishli, bundan tashqari, ular leksik jihatdan farqlanadi: “express” “tezkor”, “express” “ifoda”.

“Oxford Dictionary of English” lugʻati mualliflari soʻz boshida yozadilar: “Agar soʻz bir nechta soʻz turkumlariga tegishli boʻlsa, unda birinchi navbatda ushbu soʻz uchun asosiy boʻlgan qismi aks ettiriladi”. Agar soʻz bir nechta maʼnoga ega boʻlsa, bir-biridan sezilarli darajada farq qiladigan boʻlsagina, lugʻatda ularni har birini qalin harf bilan raqam ostidagi yangi qatordan yoziladi. Mualliflar, shuningdek, “omonimlar soni bir xil imloga ega boʻlgan boshqa soʻzni aks ettiradi”.

Oʻzbek yoki ingliz leksikografik manbalarida omonim leksemalarning maʼnosini tavsiflashning yagona tamoyili mavjud emas. Baʼzi hollarda, lugʻatlar mualliflari polisemantik va omonimlar bilan bogʻliq maʼlumotlarni taqdim etish usullarini tushuntirishlariga qaramay, amalda koʻrsatilgan prinsip, koʻpincha, lugʻatshunoslikda kuzatilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, lugʻatdagi ushbu vazifalarni hal qilish qoʻshimcha tushuntirishlar bilan aniq kontekstlardan foydalanish orqali amalga oshirilishi lozim. Kontekst taʼrifi esa omonimik soʻzning qayerda va qanday ishlatilishi haqidagi maʼlumotlarni oʻz ichiga olishi kerak. Qoʻshimcha tushuntirishlar asosiy, sinonimlar, antonimlar, tarjimalar va boshqa tillarni oʻz ichiga oladi. Bundan tashqari, omonimik soʻzlarning, aslida, nimani anglatishini koʻrsatish uchun kontekstda turli diagramma, sxemalaridan foydalanish mumkin.

Tadqiqotimiz natijasida shunga amin boʻldikki, omonimlarning izohli, tarjima lugʻatlari foydalanuvchilar uchun oson va tushunarli mezonlar ostida yaratilishi muhim. Lugʻatshunoslar omonim soʻzlarning yangi maʼnolarini moslashtirish uchun qoʻshimcha soʻzlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlari va koʻp maʼnoli soʻzlarning maʼnolarini aniqlashning aniqligini oshirishlari kerak.

Uzoq yillik tajriba, omonimiya hodisasi boʻyicha olib borilgan leksikografik tadqiqotlarimiz natijasida omonim va polisemantik soʻzlarni lugʻatlarda berish tartiblarini quyidagicha tamoyillar orqali ilmiy asosladik:

1. Kontekstuallik tamoyili. Lugʻatlarda omonim va polisemiyaning farqlash hamda lugʻat tarkibida berishda muhim tamoyillardan biri kontekstuallik tamoyilidir. Bu tamoyil soʻzning maʼnosi nafaqat uning leksik xususiyatlari bilan, balki kontekstda qoʻllanishi bilan ham belgilanishini nazarda tutadi. Shuning uchun lugʻatda soʻzlarning leksik xususiyatlarinigina emas, balki ularni qoʻllash mumkin boʻlgan turli kontekstlarni ham koʻrsatish kerak.

2. Ikkinchi tamoyil – iyerarxiya prinsipi. U soʻzlarni qoʻllanish chastotasiga qarab maʼnosiga koʻra tasniflash bilan bogʻliq. Koʻproq ishlatiladigan soʻzlar iyerarxiyaning yuqori qismiga, kamroq qoʻllaniladigan soʻzlar esa pastki qismiga joylashtirilishi kerak.

3. Uchinchi tamoyil – semantik munosabatlar tamoyili. Bu lugʻatdagi soʻzlar semantik yaqinligiga koʻra tartibga solinishi va kontekstual qoʻllanilishi boʻyicha farqlanishi kerakligini anglatadi. Masalan, kontekstga qarab turli maʼnoga ega boʻlgan bir xil soʻzlar mos ravishda belgilanishi kerak, shunda foydalanuvchilar mos maʼnoni tanlashda muammoga duch kelmaydi.

4. To'rtinchi tamoyil – istisno qilish prinsipi. Bu bir necha xil ma'noga ega bo'lgan so'zlarni kontekstual qo'llanilishiga qarab tartiblash kerakligini anglatadi. Bundan tashqari, lug'at so'zlarni turli kontekstlarda qanday ishlatish haqida aniq tushuntirishni o'z ichiga oladi.

5. Beshinchi tamoyil – aks etish tamoyili so'zlarning kam qo'llanilsa ham, barcha mumkin bo'lgan ma'nolarini lug'atga kiritish. Shunday qilib, foydalanuvchilar biron-bir kontekstda so'z bilan duch kelganlarida, tegishli ma'noni tezda topishlari mumkin. Bundan tashqari, lug'at foydalanuvchilarning kontekstual ishlatilishini tushunishga yordam beradigan turli ma'noga ega so'zlardan foydalanish misollarini o'z ichiga olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, omonim lug'atlaridan foydalanish tarjimonlar uchun, ayniqsa, leksik va grammatik tuzilmalari juda xilma-xil bo'lgan tillar o'rtasida tarjima qilishda juda muhimdir. Ular tarjimonlarga kontekstga asoslangan holda so'zning eng mos ma'nosini aniqlash imkonini beradi, bu ularning xato qilish ehtimolini kamaytiradi va tarjimaning muqobilligini saqlaydi.

Bundan tashqari, omonimik lug'atlar tarjimonlarga huquq, tibbiyot yoki muhandislik kabi ixtisoslashgan sohalarida atama va terminologiyaga duch kelganda, ayniqsa, foydali bo'ladi.

Shunday qilib, omonim lug'atlardan foydalanish, ayniqsa, turli leksik, grammatik tuzilmalarga ega bo'lgan tillar o'rtasida tarjima qilishda tarjimalarning aniqligi va sifatini ta'minlash uchun muhim vositadir.

**Rasulova Munajat Akmaljonovna (Oriental universiteti "G'arb tillari" kafedrsi katta o'qituvchisi;
e-mail:munojatruxwona@gmail.com)**

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI DRAMATIK DISKURSDA METAFORALARNING LINGVOMADANIY TASNIFI

Annotatsiya. Ushbu maqolada metafora lingvomadaniy xususiyatlarini bilish, turkumlash, konsepsiyalash, baholash va tushuntirish usullari dolzarbligi va nazariy asoslari aks ettirilgan. Maqolada, shuningdek, o'zbek va ingliz tillaridagi dramatik diskursda metaforalarning lingvomadaniy va etnik xususiyatlari va tarkibiy qismlari ko'rsatilgan.

Аннотация. В данной статье отражена актуальность и теоретическая основа методов познания, категоризации, осмысления, оценки и объяснения метафорических лингвокультурных особенностей. В статье также показаны лингвокультурные и этнические особенности и компоненты метафор в драматическом дискурсе узбекского и английского языков.

Annotation. This article reflects the relevance and theoretical foundations of methods of knowledge, categorization, conception, assessment and explanation of the linguistic features of metaphor. The article also shows the linguistic and ethnic characteristics and components of metaphors in the dramatic discourse in Uzbek and English.

Kalit so'zlar: lingvomadaniy, lingvokulturologik, etnik, konsepsiya, metafora, lingvistik.

Ключевые слова: лингвокультурный, лингвокультурологический, этнический, концептуальный, метафорический, лингвистический.

Key words: linguocultural, linguoculturological, ethnic, conception, metaphor, linguistic.

Kirish. Lingvokulturologiyada tadqiqot predmetining kengayishi va til haqidagi yangi bilim sohalarining, masalan, kognitiv lingvistikaning paydo bo'lishi til, madaniyat va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni muammosi hozirgi kunga qadar to'liq tadqiq etilgan emas. Bizning fikrimizcha, empirik yo'naltirilgan tadqiqotlar uchun mavjud bo'lgan til, madaniyat va tafakkur kesishish nuqtalaridan biri metafora va metaforik nutqlarni tahlil qilishdir. Shunday qilib, zamonaviy kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan, metafora bu konseptual tuzilmalar bo'yicha ma'lum bir aqliy operatsiya bo'lib, u bilimlarni bir konseptual sohadan boshqasiga proyeksiya qilishdan iborat.

Darhaqiqat, metafora dunyoni bilish, turkumlash, konsepsiyalash, baholash va tushuntirish usullaridan biridir. Konseptual metafora nazariyasi mualliflari ta'kidlaganidek, metafora ong hodisasi sifatida nafaqat tilda, balki fikrlash va harakatda ham namoyon bo'ladi, chunki bizning kundalik konseptual tizimimiz mohiyatan metaforadir. Bu shunisi bilan izohlanadiki, odam ma'lum bo'lgan narsa orqali noma'lum tushunchani idrok etishga intiladi va metafora bu borada eng qulay kognitiv mexanizmdir [1].

Metafora nafaqat til hodisasi, balki madaniy hodisa bo'lib, insonning aqliy tafakkuri va madaniy faoliyati metafora bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Metafora tadqiqi qadimgi yunon davriga borib taqaladi. Aristotel kabi faylasuflar metafora tabiati va funksiyasini ritorik nuqtayi nazardan tizimli nazariy jihatdan tadqiq qilishgan. 20-asrda G'arb falsafasida yuz bergan "madaniy burilish" (jumladan, "lingvistik burilish", "ekzistensial burilish", "germenevtik burilish", "postmodern burilish", "madaniy tanqidiy burilish") tufayli

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA

Sayfulloyeva Gulnoz Sayfulloyevna. Senzurlanishning umumlashgan modelidagi approksimatsiya teoremlari.....	3
Gulyamov Gafur, Majidova Gulnoza Nurmuxamedovna, Feruza Muxitdinova Rustam qizi. Magnit maydondagi p-n o'tishli diodlarning xarakteristikalari.....	7

FALSAFA

Axmedov Sohib Sayimovich. Jaloliddin Rumiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida adolat va tenglik masalalari.....	12
Axatov Lutfillo Karamatilloevich. Abdurahmon Jomiy asarlarida tasavvuf va ilm tahlili.....	15
Hakimov Akmaljon Mirzag'aniyevich. Jamiyat taraqqiyotini o'rganishda sivilizatsion yondashuvning metodologik ahamiyati.....	17
Mirzayeva Nigina Olimovna. Oila davlat va jamiyat barqarorligining asosi sifatida.....	20

TILSHUNOSLIK

Tadjibayev Muzaffar Turamirzayevich. Ilmiy-ommabop matnning lisoniy xususiyatlari.....	24
Musayev Abduvali. Jargon, argo va sleng terminlarining farqli xususiyatlari.....	27
Safarova Umida Aliaskarovna. Kontaminatsiyalashgan so'zlarning rasmiy modellarining leksik va grammatik xususiyatlari.....	32
Xudjayeva Ra'nohon Mitalibjonovna. O'zbek va ingliz tili izohli lug'atlarida omonimlar va polisemiya berilish masalasi.....	35
Rasulova Munajat Akmaljonovna. O'zbek va ingliz tillaridagi dramatik diskursda metaforalarning lingvomadaniy tasnifi.....	40
Салахидинова Зилола Одилжоновна. Репрезентация основных типов фразеологического варьирования во «фразеологическом словаре русского языка».....	42

ADABIYOTSHUNOSLIK

Boltaboyev Omonboy Yo'ldosh o'g'li. 80-yillar o'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tafakkur yangilanishi.....	46
Karamova Shohida. Hayotiy rafsilotlar va ijodkor uslubi.....	48
Kurbaniyazov Maxsud. "Qisasi Rabg'uziy" asarida janrlararo aloqalar.....	50
Bayniyazov Azatbay Tursinbayevich. Badiiyat va tarixiy haqiqat qiyosi.....	53
Sharipova Maxbuba Baxshilloevna. Epos hamda marosim munosabatining qadimiyligi va an'anaviyligi.....	56
Jamoliddinov Mirxojiddin G'iyosiddinovich. Abdulla Qodiriy – milliy uyg'onish davri satirasining yangi ijodkori.....	59
Qarshibayeva Uljan Davirovna. Balzakning "Sag'ri teri tilsimi" romanidagi rafael obrazi talqini.....	61

JURNALISTIKA

Karimov Amrullo Ashurovich. Telemahsulotlarning auditoriyaga ta'siri masalalari.....	65
---	----

PEDAGOGIKA

Barakayev Fazliddin Ismatovich. Raqamli ta'lim resurslari va ularning oliy ta'lim muassasalaridagi ahamiyati.....	68
G'oibova Nargiza Ziyoxonovna. Fizika darslarida bo'lajak muhandislarning texnik qobiliyatlarini takomillashtirishda foydalaniladigan usullar tahlili.....	72
Karimov Muxammadraxim Salimjon o'g'li. Axborot xavfsizligini ta'minlash va ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy madaniyatni yoshlar ongiga singdirishda mustahkam ta'lim-tarbiya tizimining o'rni.....	75
Fayzullayev Abduazim Kuchkarali o'g'li. Pedagogik kvalimetriya ko'rsatkichlari asosida o'qituvchilarning kasbiy mahoratini aniqlash.....	78
Yadgarov Baxodir Jumatovich. Uzunlikka sakrovchilar texnikasini takomillashtirishning zamonaviy uslub va shakllari.....	80
Saliyeva Zarrina Ilxomovna. Gapirish ko'nikmasini mustaqil ta'limda baholash metodologiyasi.....	84
Matvapayev Azizbek. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning amaliy va uslubiy jihatlari.....	87
Raximova Farangiz Abduvaliyevna. Nofilologik yo'nalishda ingliz tili darslarini tashkillashtirishning eklektik metodi.....	90
Abdullayev Alibek Qodiraliyevich. Informatika o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirishda xorijiy tajribadan foydalanish.....	92

Sodiqova Yulduz Furqatovna. Talabalarni xorijiy til ko'nikmalariga o'rgatishda baholash mezonlarining ahamiyati.....	94
Ziyayev Adxamjon Nisolmuxammadovich. Pedagogik konfliktlar va ongli intizom tarbiyasi.....	97
Rahimova Shoira Adilbekovna. Kaykovusning pedagogik ta'limoti asosida bo'lajak o'qituvchi shaxsini tarbiyalash muammolari.....	100
Rozimova Yorqinoy Yuldashevna. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikning dolzarb muammolari va uni rivojlantirish yo'llari.....	102
Abdullaeva Ma'rifatxon. Darslarni loyihalashda muammoli masalalardan foydalanish.....	104
Mirzayev Mutalib Jo'rayevich. Ma'naviy tafakkur jamiyat taraqqiyotining asosiy hamkorlik mezonlari sifatida.....	107
Abdullaeva Lola Takhirovna. Technology for Fostering Sociolinguistic Competency in University.....	110
Akhmadjonov Khasan. Students' Performance in National and European Groups.....	114
Ashurov Marufjon Abdumutalibovich. Use of Technologies of Computer Music Programs in the Pedagogy of Teaching Music Lessons.....	117
Matyakubova Xolida Maksudovna. Preparing English Language Specialization Students for Teaching through Microteaching in English Methodology Lessons.....	119

ILMIY AXBOROT

Sapayev G'ulomjon Baxtiyarovich. Davlat fuqarolik xizmatiga halol va professional kadrlarni tanlashda meritokratiya tamoyilining ahamiyati.....	123
Munavvarova Musfira. Turkiy xalqlar ma'naviyati tarixida O'rxun-Enasoy yodgorliklarining ahamiyati.....	126
Nurjonov Oybek. Sohalararo xoslangan etnografizmlarning semantik qamrovi.....	128
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, Ortiqbayeva Sabohat Qudratovna. Og'zaki muloqot akti leksik sifat aspektini ta'minlovchi tamoyillar, ma'no munosabatlari va til birliklari.....	131
Jumaniyazov Atabay Jumaniyazovich, Allaberganova Firuza Ibraximovna. So'z birikmalarining qo'shma so'z-larga aylanish tendensiyalari.....	133
Djumaniyazova Zilola. Ingliz tilidagi antropotsentrik maqollarda gender stereotiplarining namoyon bo'lishi.....	137
Abdulboqiyeva Oydina Abdurashit qizi. Shaxsni bildiruvchi axborot texnologiya terminlari.....	141
Tursunbayev Baxtiyar Turabayevich. Ramziy vositalar tarjimalarining pragmatik va kognitiv-lingvistik xususiyatlari.....	143
Xabibulloyeva Gulchehra Komiljonovna, Xo'shboqova Nasiba Nurqobil qizi, Murodova Sevara Zoir qizi. O'zbek va ingliz tillarida geografik atamalar va toponimlarning tarjimasini.....	149
Berdiev Nazira Uralovna. "Lolazor" romanida badiiy tasvir va psixologik talqin teranlashuvi.....	152
Kurbanova Saida. Shukrullo lirikasida tabiat poetikasi va lirik qahramon tasviri.....	154
Naimova Aziza Muxammadovna. Hikoya qilish texnikasining tarixiy inversiya mohiyatini tushunishdagi roli.....	157
Shamiyeva Oybahor Ravshanovna. Sharq mutafakkirlari asarlarida rahbarlik va boshqaruv muammolarining talqini.....	160
Ismoilova Dilduza Abduljalilovna, Berdiev Nor Orziyevich, Saparbayeva Erkinoy Davlatbayevna. Jadid maktablarida chet tillar targ'iboti.....	163
Sultanova Nargiza. Talabalarining ingliz tilidagi yozish ko'nikmalarini oshirish usullari.....	166
Кучкарова Гулноз Рахмоновна. Архитектура и дизайн мавзолея Абу Хафса Кабира.....	169
Краева Вероника Юрьевна, Худайберганов Шухрат Эркинович. Лингвокультурологическое описание идиом с общим значением «семья» (на материале русских говоров Алтая).....	172
Маматова Шахноза Нематжоновна. Ориентализмы в русскоязычной публицистике Узбекистана.....	176
Кененбаев Еркин Тойлибаевич. Речевые жанры коммуникации.....	180
Турумова Тамара Хакимовна, Танрибергенова Гулора Адамбаевна. К вопросу об эквивалентности перевода.....	183
Xatamova Ziyoda. Litota: English and Uzbek Linguopragmatic and Linguological Study.....	186
Zairova Nargiza Yuldashevna. Reflection of Various Aspects of the Functioning and Changes of Gender Relations in English Society in the Literature of the 19 th Century.....	189
Usmonova Zarina Habibovna. "Current Space" as a Masterpiece of Science Fiction by Isaac Asimov.....	192
Shaximardonova Baxtigul Xo'shboqovna, Ibrohimova Gulmira Abdusalom qizi. Technologies for Improving the Moral Qualities of Citizens of Andragogic Age Formed in Society.....	195